Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
FILOLOGIYA

ESHITISH MODUSI VA UNING LISONIY REPREZENTATSIYASI

Mashxuraxon Muhammad qizi Burxanova*
Mustaqil izlanuvchi Farg'ona davlat universiteti Farg'ona, O'zbekiston
✉ mashxuraxonkhakimova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning mutlaqo yangi yo'nalishlaridan biri bo'lgan sezgi a'zolari tili, xususan, eshitish modusi va uning lisoniy haqida so'z boradi. Tadqiqotda audial idrok modusi tizimiga oid perseptiv leksema sememasida tovush manbasi o'z ifodasini topishi, bu manba leksemada biror hodisa, voqea, predmet, hasharot hamda jonzotlarga taalluqliligi bilan ajralib turishi inson tafakkuri tovush simvoli va ma'lum hodisa ovoziga nisbatlanuvchi tushunchalar paradigmasini tahlil va umumashtirish asosida shakllantirishi masalalari yoritilgan. Tadqiqotda tovush sezgisi faqat tovush haqidagi tushunchalar va ularni ifodalovchi so'zlar haqidagi ma'lumotgina emas, balki u lingvosensorikaning tarkibiy qismi bo'lgan tovush semasi asosida shakllangan idrok modusiga taalluqli bo'lgan perseptiv leksemalar ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar

sezgi a'zolari tili, lingvosensorika, eshitish sezgisi, sezgilar tili modusi, perseptiv leksika, kognitivlik, lisoniy transformatsiya.

DOI: 10.5281/zenodo.21743806

KIRISH

Ma'lumki, anglash, tushunish qabul qilinayotgan xabarlar ularning manbalariga bog'liqdir. Har qanday perseptiv leksika yoki perseptiv matn qabul qilinayotgan xabarning qaysi idrok modusi bilan assotsiatsiya qilinishiga aloqador bo'ladi. Yoqimli tovush simvoliga asoslangan ifoda ohangi notiqlik san'ati qoidalariga quriladi. Masalan, she'rning o'qilishi, musiqaning chalinishi, qo'shiqning kuylanishi, ovozning nafisligi, talaffuz ohangining aniqligi so'z ma'nosi idrokini osonlashtiradi. So'zlashuvchilarning diqqati jalb qilingan ifodaga urg'uning berilishi perseptivlik modusini tashkil qiladi.

ASOSIY QISM

Inson ongi o'zining murakkab idroki bilan olam manzarasini u yoki bu sezgi a'zolari bilan qabul qiladi. Huddi ko'rishga asoslangan leksika mavjud bo'lganidek, tovush va tovushlar orqali idrok qilinadigan simvollar, obrazlar inson tafakkurida turli -tuman tipdagi konseptlarning paydo bo'lishiga yordam beradi. Shu ma'noda tovushlar tili yo'nalishiga aloqador bo'lgan tilshunoslikning lingvosensorika qismida eshitish yoki tovush leksikasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. M.Mukarramov "O'zbek tilida o'xshatish" nomli kitobida sezgi va tasavvurlar orqali sodir bo'ladigan o'xshatishlarga to'xtaladi. "O'xshatishlarning hammasi sezgilar va tasavvurlar orqali yuzaga keladi. Shu jihatdan o'xshatishlar, avvalo, ikki katta guruhga bo'linadi. Birinchi gruppa o'xshatishlar sezgilarga asoslanadi va real bo'lgan predmet, hodisalar qiyoslanadi. Bunday o'xshatishlarni shartli ravishda konkret o'xshatishlar deb nomladik... konkret o'xshatishlar ko'rish, eshitish, hid bilish, maza-ta'm va teri tuyg'u sezgi organlarining biri asosida yuzaga keladi" [1, 25-26]. Inson tafakkuri tovush, ovoz va eshitish sezgisi orqali qabul qilingan har bir ma'lumotni qayta ishlaydi, ularni tasavvurlar yig'indisi sifatida qabul qiladi, ular tafakkurda konseptual birliklar sifatida transformatsiyalanadi, badiiy adabiyotda esa poetik bo'yog'i bilan kitobxon ichki ruhiyatiga ta'sir qiluvchi lisoniy tasvirning obrazli ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Tovush simvollari asosida shakllangan ijodkor tafakkuri mohiyatini tashkil qiluvchi badiiy konsept hamda ularning lisoniy tasviri o'rganish materiallari sifatida mazkur

tadqiqotning asosiy obyektlaridan biridir.

Biz ishning avvalgi sahifalarida lingvosensorikaning mohiyatini tashkil qiluvchi yo'nalish bilan bog'liq tushunchalar izohida sensorika va lingvistika, psixologiya va kognitivlik, fiziologiya va mentalingvistika sohalariga oid tushuncha va qarashlar mohiyatini ifodalovchi maxsus terminlar va ular ifodalagan tushunchalarga to'xtalgan edik. Ana shunday yondashuv tamoyillari asosida turdosh va yondosh yo'nalishlarga oid ilmiy tushunchalar izohi bilan bog'liq qarashlarimiz tadqiqot obyekti sifatida olingan idrok leksikasining ko'rish, eshitish, ta'm va hid bilish, teri sezgisi idroki bilan bog'liq modallikni ifodalovchi so'zlarni o'rganishga yordam berdi. Shunday ilmiy qolip va paradigma asosida eshitish yoki tovush leksikasi lingvosensorikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lishi mumkin degan qat'iy fikrni ayta olamiz. Shu ma'noda biz perseptiv leksika mohiyatini sezgi a'zolari orqali olinadigan bilim bilan bog'ladik. Bu fikrlarimizni N.Mahmudovning presuppozitsiya va umumiy bilim fondi haqidagi qarashlari bilan davom ettirmoqchimiz. Bu nazariyaga ko'ra, so'z presuppozitsiya, ya'ni tagbilim haqida borar ekan, lisoniy vositalar orqali ifodalangan har qanday tushuncha va ma'noni insonning umumiy bilim fondi orqali izohlash va tushuntirishga ehtiyoj bor. Inson tafakkurida umumiy bilim fondi va borliq haqidagi bilimlar mavjud bo'lmas ekan, til orqali ifodalangan birorta tushuncha yoki ma'noni anglab bo'lmaydi. Inson tafakkurining murakkabligi va ko'pqirraliligi shundan iboratki, u olam manzarasiga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarning obyektivligini ta'minlaydigan borliq va ong munosabatiga qurilgan bilim manbayidir. U sezgi a'zolari faoliyati tufayli mavjud bo'ladi. Tafakkur va umumiy bilim fondi mental jarayonda tovush ramzlariga asoslangan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida asosiy amaliy va ilmiy manba hisoblanadi. Demak, tovush va eshitish bilan bog'liq idrok modusida ham bilish bilan bog'liq tushunchalarning ustuvorligi muhim o'rin tutadi. Bilish, tushunish va anglash bilan bog'liq insonning kognitiv xususiyatlari shunchaki jarayon emas, bilish bilan bog'liq mental va kognitiv jarayonlar mohiyati inson tafakkurida bilim va malaka bilan bog'lanmas ekan, u holda inson tafakkuri haqida so'zlash ham mumkin emas. Shu ma'noda eshitish sezgisi orqali tovushlar simvolikasiga oid tushunchalarni anglash, ularni qabul qilish, turli-tuman tushunchalarning yig'indisi sifatida shakllanadigan eshitishga asoslangan konseptlarni inson idrokida umumlashtirish eng muhim va dolzarb masalalardan biridir.

Ishning vizual idrok modusi bilan bog'liq tushunchalar izohi qismida bu yo'nalishni vizual belgi ustuvorlik qiluvchi tasviriy san'at ilmi bilan bog'lagan edik. Tovushlar orqali yuborilgan ma'lumotlarni idrok qilish modusini musiqa san'ati bilan bog'lash muhim degan fikrni qat'iy ayta olamiz. Buning sababi sifatida musiqa san'atining qadimiyligi, unda tovushlar rang-barangligi bilan bog'liq ohang, melodika, tembr, ritm kabi tushunchalar bilan bog'liq musiqa ilmi shakllanganligini e'tirof etish mumkin. Biroq barcha ilmlarda bo'lgani singari tovush ramzlari orqali hosil bo'ladigan tushuncha va konseptlar lisoniy vositalar ifodasi yoki tasviri bilan ham namoyon bo'lib, til tizimida ularning o'ziga xos idroki eshitish bilan hosil qilinadigan badiiy obrazlar haqidagi tushunchalarni anglatuvchi nomlar bilan namoyon bo'ladi. Agar har qanday til u qaysi yozuv asosiga qurilmasin, yozuv shakli bilan bog'liq alifbolarning mavjudligini e'tiborga olsak, barmoqlarning maxsus harakatlanishi asosiga qurilgan huddi surdo alifbosida bo'lganidek, tovush va ijro ramzlarini ifodalovchi notalar ham musiqa san'atining alifbosi sifatida eshitish va rang-barang tovushlar ifoda shaklining mohiyatini tashkil qiladi. Musiqa san'atiga oid alifbo hisoblangan notalar haqidagi tushunchalar ham yozma kodlar shakli bilan vizual idrok qilinuvchi tizimdir. Buni huddi nutqning yozma va og'zaki shaklidagidek qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Inson tafakkuri va ongi tufayli idrok qilingan har bir tushunchalar va konseptlar tilning og'zaki va yozma shakli orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham eshitish va tovushning turli simvollariga asoslangan idrok modusi va uning lisomiy ifodasi bo'lgan eshitish leksikasini o'rganish, tahlil va tadqiq qilish lingvosensorika yo'nalishidagi muhim bir qadamlardan biri bo'ladi.

Inson sezgi a'zolari bilan bog'liq tushunchalar nomi bilan muloqotni amalga oshirar ekan, bunday idrok leksikasi besh sezgi a'zosidan biriga aloqador bo'ladi. Lingvosensorika muammolari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslar qarashlarida ham perseptiv leksikaga xos xususiyatlar izohida lisoniy dalillar bilan vizual yoki tovush idroki modusining farqlari ko'rsatiladi. Xususan, "tovushga asoslangan idrok finlar uchun ustuvorlik qiladi, bunga fin tilida ko'plab misollarni uchratish mumkin... Ayni vaqtda, ingliz tilida vizuallik tushunchasini ifodalovchi fe'l so'z turkumiga oid "watch" so'zi kuzatmoq ma'nosini anglatadi, bu so'z fin tiliga "kello" tarzida o'giriladi. "Kello" so'zi qo'ng'iroq, jarang, tovush beruvchi buyum ma'nolarini ifodalaydi" [2, 9]. Shu o'rinda

ta'kidlash lozimki, tilning leksik tizimi va leksikaning boyishida sezgi a'zolarining o'rni juda ha yuqoridir. Yuqoridagi ilmiy fikrlarga asoslanib shuni aytamizki, perseptiv modus leksikasi qaysi sezgi a'zolariga taalluqli bo'lmasin, ular til egalari madaniyati va urf-odati bilan bog'lanadi. Inglizlarda vaqtni aniqlash tartibi qaramoq, kuzatmoq kabi ko'rish modusi bilan bog'liq leksik birliklarga xos bo'lsa, finlarda bu so'zning lug'aviy mohiyati jaranglamoq, qo'ng'iroq va tovush kabi akustik belgilar bilan ajratiladi.

Ilmiy adabiyotlarda muloqotning taktil-kinestezik tizimi haqida qiziq dalillar keltiriladi. Jumladan, F.Folsomning ta'kidlashicha, salomlashish madaniyati turli xalqlar va ularning tillarida turlichadir: "Rus, ingliz va amerikaliklar bir-birlari bilan qo'l siqib ko'rishadilar, qadimgi xitoyliklar do'stini ko'rganda o'z qo'llarni siqib qo'yadilar, laplandiyaliklar burunni-burunga ishqalab salomlashadilar, harbiylar chest berib salomlashadilar, lotin amerikaliklar quchoqlashib ko'rishadilar, fransuzlar bir-birlarining yuzlaridan o'pib ko'rishadilar, samoaliklar hidlash orqali ko'rishadilar" [3,14], o'zbeklar qo'l berib, qo'lini ko'ksiga qo'yib, ayollar quchoqlashib ko'rishadilar. Ko'rishish, salomlashish bilan bog'liq bunday muloqot madaniyati garchi taktil-kinestezik, ya'ni tana sezgisi bilan bog'liq tushunchalar tizimiga oid bo'lsa-da, bunday tartibdagi qoidalarni eshitish asosiga qurilgan idrok modusi bilan bog'lash mumkin. Bu borada ayrim xalqlarda eshitish idroki modusi bilan bogliq muloqot madaniyatiga oid farqlanishlarni A.V.Nagornaya qarashlarida ham kuzatish mumkin. Odatda, "Ingliz tili egalari salomlashishga asoslangan muloqotni nice too meet you – sizni ko'rib turganimdan xursandman... finlar esa Mita kuluu – siz nimani eshityapsiz? deb salomlashadilar. Bundan tashqari, kuluu so'zi bi rixl tovushlarni reprezentatsiya qiluvchi til egalari jamoasi ma'nosini ham anglatadi. Shu sababli fin madaniyati uchun jamoaning to'laqonli a'zosi bo'lish eshitish bilan bog'lanadi" [4, 35]. O'zbek tili egalari muloqotida ham salomlashih bilan bog'liq qo'l berish, qo'lni ko'ksiga qo'yish kabi lisoniy va nolisoniy odatlar bilan birga, sizni ko'rib turganimdan xursandman kabi lisoniy madaniyatlar ko'zga tashlanadi. Eng qizig'i, har bir tilning o'z madaniyati, o'z urf-odati manjud bo'lib, finlarga xos eshitish bilan bog'liq jamoaning to'laqonli a'zosi bo'lish madaniyati o'zbek tilida ham tinglash madaniyati "Oz so'zla, ko'p tingla" kabi qator maqollarda o'z ifodasini topadi. Bu fikrlar nima uchun keltirildi? Ko'rishga asoslangan idrok modusi hamma xalqlarda ham ustuvorlik kasb etadimi, sezgi a'zolari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi perseptiv leksika tahlili va tadqiqida barcha xalqlar tilida bunday tizimga mansub elementlarni faqat bir paradigma doirasida o'rganish mumkinmi degan savollarga javob sifatida qabul qilish mumkin. Haqiqatan ham, dunyoda mavjud xalqlar va ularning tillari to'g'risida so'z borganda, biz turlicha urf-odat va turlicha madaniyatga duch kelamiz. Har bir til shu til tashuvchilarining ruhiyati bilan bog'liq tushunchalarni ifodalaydi. Ular dunyoni shunday madaniyat va urf-odatga xos tafakkur tarzi bilan ko'radilar. Tilning leksik sath birliklari barcha tillarga xos madaniyatning o'ziga xos ko'rsatkichlari va indikatorlaridir. Perseptiv leksika ham inson sezgi a'zolari faoliyatiga yo'naltirilgan funksiyalar asosida yuzaga kelar ekan, ularda ham shu tillarga xos urf-odat, madaniyat ma'lum ma'noda o'z ifodasini topadi. Lingvosensorika muammolari qatorida e'tirof etiluvchi sezgi a'zolari ichida ko'rish sezgisining yetakchiligi haqidagi qarashlar nisbiy tushunchadir. Chunki yuqorida ta'kidlanganidek, ayrim xalqlarda, xususan, finlarda eshitish sezgisi hatto jamoaning to'laqonli a'zosi deb qabul qilinish uchun asos bo'ladi degan qarashlar mohiyatida vizuallikni yetakchi sezgi a'zosi deb qarash rad qilinadi.

Perseptiv leksika bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda sezgi idroki va uning statistikasi beriladi: "Tadqiqotchilar ko'rish sezgisini asosiy idrok modusi deb qaraydilar, bunday qarash mohiyatini vizuallik bilan bog'laydilar, vizual idrok natijasida olingan xabarlarning 80 foizi eng katta raqam sifatida e'tirof etiladi. Keyingi o'rinda tovushga asoslangan sezgi turishi, uning ulushi esa 15 foizdan iborat deb talqin qilinadi. Teginish, olfaktor hamda ta'm bilishga asoslangan idrok modusi 5 foizni tashkil qiladi" [5,24]. Bizning nazarimizda, bu statistikani qat'iy deb olish to'g'ri emas. Chunki dunyodagi har bir tilning o'ziga xos madaniyati, urf-odatlari mavjud bo'lib, mazkur til tashuvchilari tafakkurida atrof-muhitni idrok etishda sezgi a'zolaridan qay birining ustunligiga qarab, berilgan statistik ma'lumotlar o'zgarib ketishini tabiiy deb qabul qilish mumkin. Lingvosensorik tadqiqotlarning aksariyatida yuqoridagi statistikaga oid fikrlar qayd etiladi va bu odat tusiga kirgan. Sababi mazkur muammolar bilan shug'ullanuvchi izlanuvchilar besh sezgi a'zosi va uning funksional xususiyatlari bilan bog'liq perseptiv leksikaning sezgi a'zolariga nisbatan ulushini tadqiqotning markaziga tortadilar. Bunday yondashuv tamoyillari bilan ishlash mantiqan to'g'ri. Biroq ko'rish, eshitish, hid, ta'm va teginishga asoslangan idrok moduslariga tegishli perseptiv leksika balansiga doir raqamlar haqida gapirishdan oldin uning subyektiv

va obyektiv omillari to'g'risida ham o'ylab ko'rish kerak. Nima uchun inglizlarda vizuallik asosidagi idrok mahsuli bo'lgan konsept va uning tildagi leksik ifodasi statistikasi 80 foiz degan savolning qo'yilishi o'rinli, yoki finlar tilida vizual idrok modusi o'rnini tovush simvollari egallaydi va bunday yuqori statistika finlarga xos madaniyatning belgisi deb qaraladi. Bir-birini eshitishga asoslangan idrok modusi milliy mentaliteting asosiy belgisidir. Ilmiy adabiyotlarda sensor lingvistikada sezgi a'zolari bilan bog'liq tushunchalar idroki va ularni leksik birliklar bilan qo'llanishida yetakchilik imkoniyati ichki va tashqi omillar bilan bog'liqligi haqida so'z boradi. Xususan, antropolog S.Feldning qayd etishicha, hamma narsani ham ko'rish imkoniyati yo'q bo'lgan hududlarda o'rmonlar qad ko'tarib turgan tropik o'lkalarda vizual belgiga asoslangan signallar bilan muloqot qilish imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun ham ularda ko'rishning cheklanganlligi Yangi Gvineyaning kaluli xalqi kun vaqti, fasllar almashinuvi va boshqa tushunchalarni tovush sezgisi orqali idrok qilishni o'rgangan [6, 226-227]. Demak, olam haqidagi tushunchalar idroki sezgi a'zolari faoliyati bilan uzviy bog'liq. Ayni vaqtda, idrokning qaysi sezgi modusiga nisbatan belgilanishida til egalari istiqomat qiladigan hudud landshafti ham muhim o'rin tutadi. Hududga xos barcha xususiyatlar sezgi a'zolari idroki orqali tilga ko'chadi. Idrokda modallik asosi besh sezgi a'zolari vazifasi bilan amalga oshirilsa-da, anglash jarayoni bilan bog'liq perseptiv modusning ijrosida ko'rishning cheklanishi o'rmon, daraxtlar kabi tashqi omillar bilan bog'lanadi. Natijada shu til egalari ongida vizual idrok mexanizmi o'z o'rnini tovush simvoli idroki modusiga bo'shatib beradi. To'g'ri, bunday omillar hamma xalqlarda ham ularning tillarida ham bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham barcha tillarda yuqoridagi statistik raqamlarni berishda nisbiylik nazariyasiga amal qilish kerak bo'ladi. Perseptiv leksika, perseptiv matn kabi lingvosensorik tizimga oid semantik kategoriyalar to'g'risida fikr bildirish, bu tizimga oid terminologik birliklar va ular ifodalagan tushunchalar to'g'risidagi qarashlarni aytish barobarida sohaga oid elementar ilmiy fikrlarni ko'zdan qochirish mumkin emas. Lingvosensorika muammolarining asosi hisoblangan sezgilar tili, ayniqsa, tovush simvolikasi idrok modusiga oid tushunchalar qatoriga shu soha bilan bog'liq terminni kiritish maqsadga muvofiqdir. Maxsus lug'atlarda "akustika grekcha "akustikos" so'zidan olingan bo'lib, u tovushga oid tushuncha ma'nosini anglatadi. Akustika termini fizika bo'limlaridan biri bo'lib, u chastota to'lqinining tarqalish diapazonini belgilaydi, infratovush, tovush, ultratovush, gipertovush kabi terminlar mavjud. Bu termin tor ma'noda "tovush haqidagi ta'limot" ma'nosida qo'llanadi" [7,35]. Bizga ma'lumki, akustika termini tilning fonetik sathi bilan bog'lanadi. Tovushlar haqidagi ta'limotga asoslangan nutq tovushlarining akustik xususiyatlari turli fizik o'lchamlar bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham shu tizimga oid terminologik birliklar tamoyillari asosida o'rganiladi. Bundan tashqari, nutq tovushlarini o'rganish bilan bog'liq tadqiqot usuli eksperimental tajribalar orqali amalga oshiriladi. Tovushning chastotasi va u chastotalar orqali til egalari tafakkurida hosil qilingan turli tushunchalarning yig'indisidan iborat bo'lgan u yoki bu konseptlar tovushga asoslangan idrok modusini hosil qiladi. Bunday idrok modusi orqali hosil qilingan tushunchalar ifodasi so'zlar orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham tovush bilan bog'liq tushuncha va konseptlarning mohiyati hamda ularni o'rganish bilan bog'liq yo'nalish S.Feld tili bilan aytgnada "akustemologiya" – "tovush yordami bilan anglash" [6,226-227]yo'nalishi aynan tovushga asoslangan lingvosensorikaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

XULOSA

Inson ongi sezgi a'zolari orqali olamdagi barcha narsalarni idrok qiladi. Bundan tashqari, u tovush bilan bog'liq xabarlarni ham qabul qiladi. Tovush orqali qabul qilingan xabarlarda ham ayrim narsa va hodisalarning mohiyatini ifodalovchi tushunchalar idrok orqali anglanadi. Tovush, eshitish sezgisi orqali olingan ma'lumotlar yordamida til egalari o'z ongida tovush bilan bog'liq tushunchalarni konseptuallashtiradi. Inson tafakkurida shakllangan konseptlar tarkibi aksiologik tushunchalar bilan boyiydi. Aynan shu sezgi a'zosi orqali qabul qilingan barcha xabar va ma'lumotlar til tashuvchilarining kommunikativ tajribalarini shakllantiradi, bilim va malakalarini har jihatdan to'liq bo'lishiga yordam beradi. Perseptiv leksika ma'no qatorlarini to'ldiradi. Eshitish sezgisi so'zlashuvchilarning lingvomadaniy bilimlarining ifodalanishida faol ishtirok etuvchi murakkab kognitiv semantik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu jihat eshitish sezgisini lingvosensorikaning mustaqil va istiqbolli tadqiqot obyektlaridan biri sifatida e'tirof etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. 25-26-б.

2. Johnson B. Sound studies today: Where are we going? // A Cultural History of sound, memory, and the senses. – N.Y.: Routledge, 2017. – P. 9.

3. Фолсом Ф. Книга о языке. – Москва: Прогресс, 1974. – С.14.

4. Нагорная А.В. Лингвосенсорика как перспективное направление современных лингвистических исследований: аналитический обзор. – М.: ИНИОН РАН, 2017. – С.35.

5. Вишнякова, Е.П. Категория перцептивности как основа языкового моделирования возможных миров в новелле Г.Уэллса “The country of the blind” : дис. ... канд. филол. наук / Е.П. Вишнякова. – Хабаровск, 2015. – С.24.

6. Feld S. A rainforest acoustemology // The auditory culture reader. – Oxford, N.Y.: Berg, 2003. – P. 226-227.

7. Словарь иностранных слов. – М.: Рус. яз., 1988. С.35